

L.Z. BUDAGOV VA G. CLAUSON LUG‘ATLARINING LEKSIKOGRAFIK KONSEPSIYASI HAMDA UMUMTURKIY LEKSIKANI TAVSIFLASH TAMOYILLARI

Tuxtasinova Mahliyo Shavkatjon qizi,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, Toshkent, O‘zbekiston,

E-pochta: mahliyo.shavkatjonovna@gmail.com,

ORCID ID: 0000-0002-6849-0603

Annotatsiya. Mazkur maqolada L.Z. Budagovning «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» hamda G. Clausonning «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» lug‘atlarida umumturkiy leksikaning tavsiflanish tamoyillari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki lug‘atning yaratilish maqsadi, ilmiy konsepsiyasi, umumturkiy leksikani tanlash mezonlari, bosh so‘zlarni shakllantirish prinsiplari, lug‘at maqolalarining tuzilishi hamda etimologik tavsiflash usullari o‘rganildi. Qiyosiy-tarixiy, leksikografik va tavsifiy metodlar asosida Budagov va Clauson tomonidan qo‘llangan leksikografik yondashuvlarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari Budagov lug‘ati qiyosiy-dialektologik leksikografiya, Clauson lug‘ati esa tarixiy-etimologik leksikografiya modelini ifodalashini ko‘rsatdi. Shuningdek, umumturkiy leksikani o‘rganishda ushbu ikki lug‘atning o‘zaro komplementar xarakterga egaligi hamda turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, proto-turk leksik fondi va semantik evolyutsiyasini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi asoslandi. Tadqiqot natijalari turkiy tarixiy leksikografiya, etimologiya va tarixiy leksikologiya sohalaridagi keyingi izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: umumturkiy leksika, tarixiy leksikografiya, L.Z. Budagov, G. Clauson, qiyosiy leksikografiya, etimologik lug‘at, proto-turk, tarixiy leksikologiya, chig‘atoy tili, turkiy tillar.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the principles employed in the description of Common Turkic vocabulary in Lazar Zakharovich Budagov’s *Comparative Dictionary of Turkic-Tatar Dialects* (Сравнительный словарь турецко-татарских наречий) and Gerard Clauson’s *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. The study examines the objectives, scholarly foundations, criteria for the selection of Common Turkic lexical units, principles of lemma formation, structures of dictionary entries, and methods of etymological interpretation adopted in both lexicographic works. Employing comparative-historical, lexicographic, and descriptive methods, the research identifies the similarities and differences between the lexicographic approaches developed by Budagov and Clauson.

The findings demonstrate that Budagov’s dictionary represents a comparative-dialectological model of Turkic lexicography, whereas Clauson’s dictionary embodies a historical-etymological model. The analysis further reveals that these two lexicographic traditions are not mutually exclusive; rather, they complement one another in the study of Common Turkic vocabulary. While Budagov’s work provides extensive evidence regarding the geographical distribution, dialectal variation, and literary usage of lexical units, Clauson’s dictionary offers a systematic account of their historical development, etymology, and semantic evolution. Consequently, the combined use of these lexicographic sources creates broader opportunities for investigating the Proto-Turkic lexical stock and reconstructing the historical development of Turkic languages.

The results of the study contribute to a deeper understanding of the methodological foundations of Turkic historical lexicography and provide a theoretical and methodological framework for future research in Turkic etymology, historical lexicology, and comparative lexicography.

Keywords: Common Turkic vocabulary; historical lexicography; Lazar Zakharovich Budagov; Gerard Clauson; comparative lexicography; etymological dictionary; Proto-Turkic; historical lexicology; Chagatai language; Turkic languages.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ принципов описания общетюркской лексики в словарях Л. З. Будагова «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» и Г. Клаусона «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish». В исследовании рассматриваются цели создания и научные концепции обоих словарей, критерии отбора общетюркской лексики, принципы формирования заглавных слов, структура словарных статей, а также методы этимологического описания. На основе сравнительно-исторического, лексикографического и описательного методов выявлены сходства и различия в лексикографических подходах, применяемых Будаговым и Клаусоном. Результаты исследования показывают, что словарь Будагова представляет модель сравнительно-диалектологической лексикографии, тогда как словарь Клаусона отражает модель историко-этимологической лексикографии. Кроме того, обоснован комплементарный характер этих двух словарей в изучении общетюркской лексики, а также их важное научное значение для исследования исторического развития тюркских языков, прототюркского лексического фонда и семантической эволюции. Результаты исследования могут служить теоретико-методологической основой для дальнейших исследований в области тюркской исторической лексикографии, этимологии и исторической лексикологии.

Ключевые слова: общетюркская лексика, историческая лексикография, Л. З. Будагов, Г. Клаусон, сравнительная лексикография, этимологический словарь, прототюркский язык, историческая лексикология, чагатайский язык, тюркские языки.

Kirish. Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, ularning genetik qarindoshligi va umumturkiy leksik fondini aniqlash masalalari turkiyshunoslikning eng muhim va doimiy tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turkiy tillarning eng qadimgi qatlamiga mansub boʻlgan umumturkiy (proto-turk) leksikani aniqlash, uning tarixiy taraqqiyotini kuzatish hamda turli davrlarda yaratilgan lugʻatlardagi aksini oʻrganish tarixiy leksikologiya, etimologiya va leksikografiya uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Umumturkiy leksika nafaqat turkiy tillarning qadimgi holatini rekonstruksiya qilish, balki ularning keyingi taraqqiyot bosqichlari, semantik evolyutsiyasi va areal tarqalishini yoritishda ham asosiy manbalardan biri sanaladi.

XIX–XX asrlarda yaratilgan fundamental turkiy lugʻatlar orasida Lazar Zaxarovich Budagovning «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» va Gerard Clausonning «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» asarlari alohida oʻrin tutadi. Ushbu lugʻatlar turkiy leksikaning turli jihatlarini yoritishga qaratilgan boʻlsa-da, ularni birlashtiruvchi muhim jihat umumturkiy leksik fondni qayd etish va tavsiflashga boʻlgan intilishdir. Biroq mazkur lugʻatlar turli davr, turli ilmiy maktab va turli metodologik tamoyillar asosida yaratilganligi sababli ularda umumturkiy leksikani tanlash, tasniflash, izohlash va tarixiy talqin qilish usullari ham sezilarli darajada farqlanadi.

Budagov lugʻati XIX asr qiyosiy turkiyshunosligining yirik yutugʻi sifatida turkiy lahjalar va adabiy tillarning boy leksik materialini bir tizimga solishga qaratilgan boʻlsa, Clauson lugʻati XX asr tarixiy-etimologik turkiyshunosligining eng muhim namunalaridan biri sifatida qadimgi turkiy leksikani rekonstruksiya qilish va uning tarixiy-semantik taraqqiyotini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Clauson oʻz lugʻatining asosiy maqsadi sifatida XIII asrgacha boʻlgan davrda mavjud boʻlgan asl turkiy leksik qatlamni

aniqlash va uning tarixiy rivojlanishini yoritishni belgilaydi. Budagov esa turkiy tillarning qiyosiy materiallarini, jumladan, chig‘atoy yozma an‘anasi va turli hududiy lahjalarga oid ma‘lumotlarni bir lug‘at doirasida jamlash orqali turkiy leksikaning keng qamrovli tasvirini yaratishga intilgan.

Turkiyshunoslikda Budagov va Clauson lug‘atlarining ilmiy ahamiyati haqida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning umumturkiy leksikani aks ettirishdagi leksikografik tamoyillari maxsus qiyosiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Aksariyat ishlarda mazkur lug‘atlar manba sifatida qo‘llanadi, biroq ularning bosh so‘z tanlash mezonlari, leksik birliklarni tasniflash prinsiplari, etimologik talqin usullari, semantik tavsiflash imkoniyatlari hamda umumturkiy qatlamni aniqlashdagi yondashuvlari kompleks ravishda tahlil qilinmaydi. Holbuki, bunday qiyosiy tahlil XIX asr qiyosiy-dialektologik leksikografiyasi bilan XX asr tarixiy-etimologik leksikografiyasi o‘rtasidagi metodologik uzviylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, umumturkiy leksikani tavsiflashning ikki yirik leksikografik modelini qiyosiy o‘rganish zarurati bilan, ikkinchi tomondan esa turkiy tillar tarixini rekonstruksiya qilishda muhim manba hisoblangan Budagov va Clauson lug‘atlarining ilmiy salohiyatini qayta baholash ehtiyoji bilan belgilanadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari tarixiy leksikologiya, etimologiya, turkiy leksikografiya va chig‘atoyshunoslik sohalaridagi keyingi izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiy tillarning umumiy leksik fondini aniqlash, tarixiy taraqqiyotini yoritish hamda qadimgi turkiy qatlamni rekonstruksiya qilish masalalari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkiyshunoslikning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu boradagi dastlabki yirik tadqiqotlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodologiyasi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, keyinchalik ular tarixiy leksikografiya va etimologik tadqiqotlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Turkiy tillarning qiyosiy o‘rganilishi va umumturkiy leksikani tizimli qayd etish jarayonida V.V. Radlovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olimning ko‘p jildli *«Опыт словаря тюркских наречий»* asari turkiy tillar va lahjalarning ulkan leksik materialini jamlagan dastlabki fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Radlov lug‘ati turkiy xalqlarning jonli so‘zlashuv tili hamda yozma manbalariga tayangan holda tuzilgan bo‘lib, unda ko‘plab umumturkiy birliklarning fonetik va semantik variantlari qayd etilgan. Mazkur asar keyinchalik yaratilgan deyarli barcha turkiy lug‘atlar uchun muhim manba vazifasini bajargan.

Turkiy leksikografiya tarixida Lazar Zaxarovich Budagovning *«Сравнительный словарь турецко-татарских наречий»* asari alohida bosqichni tashkil etadi. Budagov turkiy tillarning qiyosiy lug‘atini yaratish orqali turli adabiy tillar va lahjalarda uchraydigan leksik birliklarni bir tizimda jamlashga harakat qilgan. Lug‘atning muhim jihati shundaki, unda chig‘atoy adabiy tili materiallari, turkiy xalqlarning folklor va yozma

manbalari, shuningdek, ko‘plab hududiy variantlar keng aks ettirilgan. Shu bois mazkur asar nafaqat qiyosiy leksikografiya, balki tarixiy leksikologiya va chig‘atoyshunoslik uchun ham muhim manba sifatida e‘tirof etiladi. Keyingi davr tadqiqotchilaridan A.N. Kononov Budagov lug‘atining ilmiy qiymatini baholar ekan, uning turkiy tillarning leksik tarkibini o‘rganishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida turkiy etimologiya va tarixiy leksikografiya yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon, avvalo, Gerard Clausonning «*An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*» asari bilan bog‘liqdir. Olim o‘z tadqiqotida qadimgi turkiy yodgorliklar, uyg‘ur matnlari, qoraxoniylar davri asarlari va boshqa tarixiy manbalar asosida XIII asrgacha mavjud bo‘lgan asl turkiy leksik qatlamni qayta tiklashga intilgan. Clausonning lug‘ati etimologik tavsifning izchilligi, tarixiy matnlarga tayanganligi hamda semantik evolyutsiyani izohlashga qaratilganligi bilan avvalgi lug‘atlardan ajralib turadi. Muallif turkiy tillarning eng qadimgi qatlamini aniqlash va o‘zlashma unsurlarni ajratish masalasini asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy leksikani o‘rganishda «*Древнетюркский словарь*» (DTS) ham muhim o‘rin egallaydi. Mazkur lug‘at Orxon-Yenisey bitiklari, uyg‘ur yodgorliklari va boshqa qadimgi turkiy manbalar asosida tuzilgan bo‘lib, qadimgi turkiy davr leksikasini tizimli ravishda aks ettiradi. DTS qadimgi turkiy so‘zlarning fonetik shakllari, grammatik tavsifi va ma’nolarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan hamda Clauson tadqiqotlari uchun ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Turkiy etimologiya sohasidagi eng yirik loyihalardan biri E.V. Sevortyan rahbarligida yaratilgan *«*Этимологический словарь тюркских языков*»*dir. Ushbu ko‘p jildli lug‘atda turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti qiyosiy-tarixiy metod asosida yoritilib, turkiy tillarda uchraydigan ko‘plab leksemalarning kelib chiqishi, fonetik rivojlanishi va semantik evolyutsiyasi tahlil qilingan. Sevortyan lug‘ati umumturkiy leksikani rekonstruksiya qilish hamda proto-turk davriga mansub birliklarni aniqlash borasidagi eng muhim tadqiqotlardan biri sifatida baholanadi.

Shuningdek, N.A. Baskakov, A.M. Shcherbak, A.N. Kononov, T. Tekin, M. Erdal, A. von Gabain, J. Hamilton, P. Golden kabi olimlarning ishlari ham qadimgi turkiy leksika, tarixiy fonetika va etimologiya masalalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida Budagov va Clauson lug‘atlari tarixiy manba sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularning umumturkiy leksikani tavsiflashdagi leksikografik yondashuvlari maxsus qiyosiy tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmagan.

So‘nggi yillarda L.Z. Budagov lug‘atining manbalari, tuzilish prinsiplari, leksikografik konsepsiyasi hamda tarixiy o‘zbek leksikasini aks ettirish xususiyatlari M. Tuxtasinova tomonidan maxsus tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotlarda lug‘atning shakllanish tarixi, manbaviy bazasi, lug‘at maqolalarining tuzilishi va tarixiy leksikografiyadagi o‘rni yoritilgan. Biroq Budagov va Clauson lug‘atlarida umumturkiy leksikaning tavsiflanish

tamoyillarini qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas.

Shu sababli Budagov va Clauson lug'atlarining umumturkiy leksikani tanlash mezonlari, bosh so'zni tashkil etish prinsiplari, etimologik izohlash usullari hamda tarixiy-semantik tavsiflash imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish turkiy tarixiy leksikografiya taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va mazkur tadqiqotning ilmiy zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi L.Z. Budagovning «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» hamda G. Clausonning «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» lug'atlarida umumturkiy leksikaning tavsiflanish tamoyillarini qiyosiy jihatdan o'rganish, ushbu lug'atlarining leksikografik konsepsiyasi, material tanlash mezonlari va tarixiy-etimologik yondashuvlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda asosiy e'tibor alohida leksemalarning etimologik tahliliga emas, balki umumturkiy leksikani lug'atlarda aks ettirishning nazariy va amaliy mexanizmlariga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan Budagov va Clauson tomonidan qo'llangan leksikografik yondashuvlar turkiy tarixiy leksikografiya taraqqiyotining ikki muhim bosqichi sifatida baholanadi. Birinchisi XIX asr qiyosiy-dialektologik leksikografiyasini, ikkinchisi esa XX asr tarixiy-etimologik leksikografiyasini ifodalaydi. Mazkur ikki ilmiy an'ananing umumturkiy leksikani qayd etish va tavsiflashdagi o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash tadqiqotning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- turkiy tarixiy leksikografiya taraqqiyotida Budagov va Clauson lug'atlarining o'rnini aniqlash;
- har ikki lug'atning yaratilish konsepsiyasi, ilmiy manbalari va metodologik asoslarini tavsiflash;
- lug'atlarda umumturkiy leksikani tanlash va saralash mezonlarini qiyosiy tahlil qilish;
- bosh so'z (lemma)ni shakllantirish tamoyillari hamda lug'at maqolalarining tuzilish xususiyatlarini o'rganish;
- umumturkiy leksikaning semantik tavsifi va ma'no taraqqiyotini yoritish usullarini aniqlash;
- etimologik izohlash va tarixiy rekonstruksiya masalalarida Budagov hamda Clauson yondashuvlarining o'xshash va farqli jihatlarini belgilash;
- umumturkiy leksikani tavsiflashda qiyosiy-dialektologik va tarixiy-etimologik leksikografik modellar o'rtasidagi metodologik tafovutlarni ko'rsatish;
- Budagov va Clauson lug'atlarining zamonaviy turkiy etimologiya, tarixiy leksikologiya hamda tarixiy leksikografiya uchun ilmiy ahamiyatini baholash.

Tadqiqot natijasida XIX asr va XX asr turkiy leksikografiyasining ikki yirik namunasida umumturkiy leksikaning tavsiflanish mexanizmlari qiyosiy jihatdan yoritilib, turkiy tarixiy leksikografiya rivojining metodologik xususiyatlari hamda ushbu lugʻatlarning proto-turk leksik fondini oʻrganishdagi ilmiy imkoniyatlari aniqlanadi. Bu esa umumturkiy leksikaning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etish, yangi etimologik izlanishlarni amalga oshirish va turkiy tillarning tarixiy lugʻatlarini yaratish jarayonlari uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy manbalarini L.Z. Budagovning ikki jildli «*Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*» (1869–1871) hamda G. Clausonning «*An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*» (1972) asarlari tashkil etadi. Ushbu lugʻatlar turkiy leksikografiya tarixining turli davrlariga mansub boʻlishiga qaramay, umumturkiy leksikani qayd etish va tavsiflash borasidagi fundamental manbalar sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Budagov lugʻatining yaratilish tarixi, manbalari va leksikografik prinsiplari muallifning avvalgi tadqiqotlarida batafsil yoritilganligi sababli mazkur maqolada ushbu masalalarga qayta toʻxtalinmadi. Asosiy eʼtibor Budagov va Clauson lugʻatlarida umumturkiy leksikani tanlash, tavsiflash va tarixiy talqin qilish tamoyillarining qiyosiy tahliliga qaratildi.

Budagov lugʻati XIX asr qiyosiy turkiyshunosligi mahsuli boʻlib, unda turkiy tillar va lahjalarning keng qamrovli leksik materiallari jamlangan. Lugʻat tarkibiga chigʻatoy adabiy tili, usmonli turk tili, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, tatar, boshqird, qrim-tatar va boshqa turkiy tillarga oid birliklar kiritilgan. Muallif bosh soʻzlarni arab yozuvida berib, ularning ruscha izohlarini, fonetik variantlarini hamda ayrim hollarda tarixiy-adabiy manbalardan misollarni keltirgan (Будагов, 1869–1871).

Clauson lugʻati esa qadimgi turkiy yodgorliklar, Orxon-Yenisey bitiklari, uygʻur matnlari, qoraxoni davri yozma manbalari va boshqa tarixiy asarlar asosida yaratilgan etimologik lugʻat hisoblanadi. Muallifning asosiy maqsadi XIII asrgacha mavjud boʻlgan asl turkiy leksik qatlamni aniqlash, uning dastlabki maʼnosini tiklash va tarixiy-semantik taraqqiyotini koʻrsatishdan iborat boʻlgan (Clauson, 1972, p. III–VI).

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy metod asosida Budagov va Clauson lugʻatlaridagi umumturkiy leksikani tavsiflash tamoyillari oʻzaro solishtirildi. Leksikografik tahlil yordamida lugʻat maqolalarining tuzilishi, bosh soʻzlarni tanlash prinsiplari va maʼlumotlarni taqdim etish usullari oʻrganildi. Etimologik tahlil orqali umumturkiy birliklarning kelib chiqishi va tarixiy izohlanishiga oid yondashuvlar qiyoslandi. Komponent tahlil metodi lugʻat maqolalarining tarkibiy qismlarini – lemma, fonetik variantlar, semantik tavsif, etimologik izoh va misol materiallarini aniqlashda qoʻllanildi. Tavsifiy metod esa tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va umumlashtirish imkonini berdi.

Natijada Budagov va Clauson lugʻatlarining umumturkiy leksikani aks ettirishdagi oʻxshash va farqli jihatlari tarixiy leksikografiya nuqtayi nazaridan baholandi.

Tahlil va natijalar.

1. Budagov va Clauson lugʻatlarining yaratilish maqsadi hamda ilmiy konsepsiyasi. Turkiy leksikografiya tarixida L.Z. Budagov va G. Clauson tomonidan yaratilgan lugʻatlar bir-biridan qariyb bir asrlik vaqt bilan ajralib turadi. Shu bois ularning yaratilish maqsadi, ilmiy vazifalari va metodologik asoslari ham turlicha shakllangan.

L.Z. Budagovning «*Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*» asari XIX asr qiyosiy tilshunosligi va sharqshunosligi taraqqiyoti mahsuli hisoblanadi. Muallif lugʻatning kirish qismida uning asosiy maqsadi turkiy lahjalarning keng qamrovli qiyosiy lugʻatini yaratish, turli turkiy tillarda uchraydigan leksik birliklarni bir tizimga keltirish hamda sharq tillarini oʻrganuvchilar uchun amaliy qoʻllanma yaratishdan iborat ekanligini taʼkidlaydi (Будагов, 1869, с. V–VIII).

Budagov konsepsiyasida turkiy lahjalar markaziy oʻrin egallaydi. Lugʻatning asosiy materiali jonli xalq tillari, yozma adabiy manbalar va ayniqsa chigʻatoy adabiyoti namunalari olingan. Muallif arab yozuvidagi asl shakllarni saqlagan holda turli lahjalardagi variantlarni bir lugʻat maqolasi doirasida birlashtirishga intilgan. Natijada lugʻat nafaqat leksik maʼlumotnoma, balki XIX asr turkiy dialektologiyasi uchun ham muhim manbaga aylangan.

Clauson lugʻatining konsepsiyasi esa mutlaqo boshqa ilmiy vazifaga qaratilgan. Muallif lugʻatning kirish qismida XIII asrgacha boʻlgan davrda mavjud boʻlgan asl turkiy soʻzlarni aniqlash va ularning tarixiy taraqqiyotini koʻrsatishni bosh maqsad sifatida belgilaydi (Clauson, 1972, p. III–IV).

Clauson uchun lugʻat qiyosiy emas, avvalo etimologik xarakterga ega. Shuning uchun u har bir leksemaning qadimgi matnlardagi qoʻllanishini, derivatsion tuzilishini va semantik rivojlanishini izchil tahlil qiladi. Muallifning fikricha, turkiy tillarning ilmiy etimologiyasini yaratish uchun eng avvalo oʻzlashma qatlamlardan xoli boʻlgan qadimgi turkiy leksik fondni aniqlash zarur (Clauson, 1972, p. III–V).

Shunday qilib, Budagov lugʻati qiyosiy-dialektologik leksikografiya namunasi boʻlsa, Clauson lugʻati tarixiy-etimologik leksikografiyaning mukammal namunasi sifatida namoyon boʻladi.

2. Umumturkiy leksikani tanlash mezonlari. Budagov va Clauson lugʻatlarining eng muhim farqlaridan biri umumturkiy leksikani tanlash tamoyillarida namoyon boʻladi.

Budagov uchun asosiy mezon turkiy tillar va lahjalarda qoʻllanadigan leksik birliklarni maksimal darajada qamrab olishdan iborat boʻlgan. Shu sababli lugʻatda umumturkiy birliklar bilan bir qatorda ayrim hududiy, tarixiy va adabiy qatlamga mansub soʻzlar ham keng oʻrin olgan. Muallif turkiy tillar oʻrtasidagi leksik munosabatlarni koʻrsatishga intilganligi sababli etimologik tanlovdan koʻra qamrov tamoyiliga koʻproq amal qilgan (Будагов, 1869, с. V–VIII).

Clauson esa mutlaqo boshqa yondashuvni tanlaydi. U lug‘atga faqat XIII asrgacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘lgan va asl turkiy deb hisoblangan birliklarni kiritishga harakat qiladi. Arab, fors va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar imkon qadar chiqarib tashlanadi. Muallifning ta’kidlashicha, haqiqiy turkiy etimologiyani yaratish uchun eng avvalo qadimgi turkiy leksik fondni ajratib olish zarur (Clauson, 1972, p. III–IV).

Bu jihatdan Clauson lug‘ati umumturkiy qatlamni rekonstruksiya qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Budagov lug‘ati turkiy tillarning amaldagi leksik holatini aks ettirishga qaratilgan.

Shuning uchun Clauson lug‘atida etimologik izoh, tarixiy attestatsiya va semantik evolyutsiya markaziy o‘rin egallaydi, Budagovda esa lahjaviy variantlar va qiyosiy materiallar ustunlik qiladi.

3. Umumturkiy leksikani tavsiflash usullarining qiyosi. Budagov va Clauson lug‘atlarining leksikografik xususiyatlarini aniqlashda alohida leksemalarning etimologiyasini emas, balki ularning lug‘at maqolalari qanday tuzilganligini tahlil qilish muhimdir. Shu maqsadda turkiy tillarning eng qadimiy va barqaror qatlamiga mansub bo‘lgan qarindoshlik, ijtimoiy-siyosiy hamda ko‘chmanchi madaniyat leksikasiga oid bir qator umumturkiy birliklar tanlab olindi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Budagov va Clauson bir xil leksik materialga murojaat qilgan bo‘lsalar-da, uni taqdim etish tamoyillari sezilarli darajada farqlanadi.

3.1. Qarindoshlik terminlarining tavsifi. Umumturkiy qatlamning eng qadimgi va eng barqaror qismi qarindoshlik terminlari hisoblanadi. *Ata* va *ana* leksemalari deyarli barcha turkiy tillarda uchraydigan va proto-turk davridan meros bo‘lib kelayotgan birliklar sirasiga kiradi. Budagov lug‘atida *ata* leksemasi avvalo turli turkiy tillardagi fonetik variantlari bilan birgalikda beriladi. Muallif ushbu birlikning turli lahjalardagi shakllarini ko‘rsatish orqali uning umumturkiy xarakterini namoyon etishga intiladi (Будагов, 1869–1871). Bunda asosiy e’tibor leksik birlikning tarqalish geografiyasiga qaratilgan.

Clauson esa *ata* leksemasini qadimgi turkiy matnlar asosida tavsiflaydi. U leksemaning eng qadimgi attestatsiyalarini keltirib, uning dastlabki ma’nosi, fonetik shakli va keyingi tarixiy taraqqiyotini izohlaydi (Clauson, 1972). Bu yerda leksemaning turli tillardagi zamonaviy ko‘rinishlaridan ko‘ra tarixiy rivojlanishi muhimroq hisoblanadi.

Xuddi shunday holat *ana* leksemasida ham kuzatiladi. Budagov ushbu birlikning lahjaviy variantlarini qayd etishga e’tibor bersa, Clauson uning qadimgi yozma manbalardagi qo‘llanishini va semantik barqarorligini tahlil qiladi. Natijada Budagovda geografik qamrov, Clausonda esa tarixiy qamrov ustunlik qilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

3.2. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning tavsifi. Umumturkiy qatlamning muhim qismini tashkil etuvchi *el*, *ulus* va *ordu* kabi birliklar ham ikki lug‘atda turlicha yondashuv asosida tavsiflangan. Budagov *el* leksemasini xalq, qabila, mamlakat ma’nolarida qo‘llangan ko‘p ma’noli birlik sifatida tavsiflaydi va uning turli turkiy tillardagi shakllarini qiyosiy tarzda

keltiradi. Shu orqali mazkur leksemaning turkiy dunyo miqyosidagi qo'llanish doirasini ko'rsatishga harakat qiladi.

Clauson esa *el* so'zining qadimgi turkiy davrdagi semantik maydonini tiklashga intiladi. U Orxon bitiklari va boshqa tarixiy manbalardagi qo'llanishlarni tahlil qilib, leksemaning dastlabki siyosiy hamda etnik mazmunini aniqlashga e'tibor qaratadi.

Ulus leksemasi misolida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Budagovda ushbu birlikning lahjaviy shakllari va amaliy qo'llanilishi aks ettirilgan bo'lsa, Clausonda uning qadimgi siyosiy termin sifatidagi taraqqiyoti va semantik kengayishi tahlil qilinadi.

Ayniqsa, *ordu* leksemasi ikki lug'atning metodologik farqini yaqqol namoyon etadi. Budagov uni turli turkiy tillarda uchraydigan harbiy va ma'muriy termin sifatida tavsiflaydi. Clauson esa so'zning qadimgi turkiy matnlardagi qo'llanishiga tayangan holda uning dastlabki ma'nolari va keyingi semantik o'zgarishlarini rekonstruksiya qiladi.







3.3. Ko'chmanchi madaniyatga oid leksikaning tavsifi. Proto-turk davri hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgan *yaylaq*, *qışlaq*, *yilka* va *otağ* kabi birliklar umumturkiy leksikaning eng qadimiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Budagov ushbu leksemalarni tavsiflashda turli turkiy xalqlarning etnografik va maishiy hayotiga oid ma'lumotlardan keng foydalanadi. Masalan, *yaylaq* va *qışlaq* birliklari izohida muayyan hududlarda uchraydigan variantlar va qo'llanish xususiyatlari qayd etiladi. Bu esa lug'atning dialektologik va etnografik qiymatini oshiradi.

Clauson esa mazkur birliklarning morfologik tarkibini, tarixiy qo'llanishini va semantik taraqqiyotini izchil tahlil qiladi. Xususan, *yilka* leksemasining qadimgi turkiy matnlardagi attestatsiyalari va uning turkiy tillar tarixidagi davomiyligi ko'rsatiladi. Shu tariqa muallif har bir birlikning umumturkiy fondga mansubligini tarixiy dalillar asosida asoslashga intiladi.

3.4. Lug'at maqolalari tuzilishining qiyosiy tavsifi. Tahlil qilingan leksemalar shuni ko'rsatadiki, Budagov va Clauson lug'atlaridagi maqola tuzilishi ham bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

1-jadval.

BUDAGOV VA CLAUSON LUG'ATLARINING
QIYOSIY TAVSIFI

MEZONI	BUDAGOV (1868–1920)	CLAUSON (1891–1971)
 Asosiy maqsad	Turkiy tillar va lahjarlar leksikasini qiyosiy tavsiflash.	Turkiy leksikaning tarixiy-etimologik taraqqiyotini izohlash.
 Markaziy obyekt	XIX asr turkiy tillari va lahjalari (qipchoq, o'g'uz, qorachoy-balkar, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqalar).	Qadimgi va o'rta turkiy leksika (runik yodgorliklardan boshlab o'rta turkiy davrgacha).
 Asosiy e'tibor	Leksik variantlar, fonetik tafovutlar va hududiy tarqalish.	So'zlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi.
 Misollar manbai	Adabiy asarlar, lahjaviy materiallar va lug'atlar.	Tarixiy yozma yodgorliklar va filologik manbalar.
 Semantik tahlil	Asosiy ma'nolarni ko'rsatish.	Ma'no taraqqiyotini izohlash.
 Etimologik izoh	Ayrim hollarda beriladi.	Tadqiqotning asosiy tarkibiy qismi.
 Rekonstruksiya	Cheklangan darajada.	Yetakchi metodlardan biri.

**Budagov lug'ati**

Turkiy tillarning XIX asrdagi real leksik holati, hududiy variantlari va lahjaviy tafovutlarini aks ettiruvchi noyob qiyosiy manba sifatida ahamiyatga ega.

**Clauson lug'ati**

Turkiy leksikaning tarixiy-etimologik taraqqiyotini yorituvchi fundamental ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Izoh: Budagov lug'ati qiyosiy-tavsifiy yo'nalishga mansub bo'lib, turkiy tillar va lahjalarning leksik tarkibi hamda hududiy variantlarini qiyosiy asosda aks ettiradi; Clauson lug'ati esa tarixiy-qiyosiy va etimologik metodlarga tayangan holda turkiy leksikaning diaxronik taraqqiyotini yoritadi.

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, L.Z. Budagov va G. Clauson lug'atlari turkiy leksikani tadqiq etishning ikki turli ilmiy yo'nalishini aks ettiradi. Budagov lug'ati, avvalo, XIX asr turkiy tillari va lahjalari leksikasini qiyosiy-tavsifiy asosda sistemalashtirishga qaratilgan bo'lib, unda leksik birliklarning fonetik variantlari, hududiy tarqalishi, lahjaviy xususiyatlari hamda asosiy ma'nolari qayd etilgan. Shu jihatdan mazkur lug'at turkiy tillarning real leksik holatini va dialektal tafovutlarini aks ettiruvchi muhim qiyosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Clauson lug'ati esa turkiy leksikaning tarixiy-etimologik tavsifini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, unda so'zlarning kelib chiqishi, qadimgi va o'rta turkiy yodgorliklardagi qo'llanishi, semantik taraqqiyoti hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilinadi. Lug'atning asosiy metodologik tamoyili etimologik izoh va tarixiy-qiyosiy tahlilga tayanganligi bilan xarakterlanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari Budagov lug'atida leksik birliklarning sinxron holati, hududiy differentsiatsiyasi va fonetik variantlari markaziy o'rin egallashini, Clauson lug'atida esa diaxron yondashuv asosida leksik birliklarning tarixiy ildizlari va semantik evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, Budagov lug'ati turkiy dialektologiya, qiyosiy leksikologiya va XIX asr turkiy tillari tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa, Clauson lug'ati turkiy etimologiya, tarixiy leksikologiya hamda prototurkiy rekonstruksiya tadqiqotlari uchun fundamental manbalardan biri hisoblanadi.

Demak, mazkur lug'atlar o'z tadqiqot obyekti, metodologik yondashuvi va ilmiy maqsadiga ko'ra farqlansa-da, umumturkiy leksikaning shakllanishi, taraqqiyoti va hududiy ko'rinishlarini kompleks o'rganishda bir-birini to'ldiruvchi ilmiy manbalar sifatida alohida ilmiy qiymatga ega.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, L.Z. Budagov va G. Clauson lug'atlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yoki ulardan birini ikkinchisidan ustun deb baholash ilmiy jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi. Aksincha, mazkur lug'atlar turkiy tarixiy leksikografiyaning turli davrlarda shakllangan ikki mustaqil, ammo o'zaro uzviy bog'liq ilmiy modelini namoyon etadi. Ularning umumiy maqsadi turkiy leksik fondni qayd etish va ilmiy tavsiflashdan iborat bo'lsa-da, bu vazifani amalga oshirishda qo'llangan metodologik yondashuvlar sezilarli darajada farqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumturkiy leksikani o'rganishda ushbu ikki model bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega. Budagov lug'ati turkiy tillardagi leksik birliklarning geografik tarqalishi, lahjaviy differensiyalanishi va adabiy an'analardagi qo'llanishini kuzatish imkonini bersa, Clauson lug'ati ayni birliklarning tarixiy kelib chiqishi va semantik evolyutsiyasini aniqlash imkonini yaratadi. Boshqacha aytganda, Budagov turkiy leksikaning gorizontol (areal va dialektologik) tavsifini bersa, Clauson uning vertikal (tarixiy va etimologik) rivojlanishini yoritadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida umumturkiy leksikani tavsiflashda XIX asr qiyosiy leksikografiyasi bilan XX asr tarixiy-etimologik leksikografiyasi o'rtasida metodologik uzviylik mavjudligi ham aniqlandi. Clauson tomonidan qo'llangan ko'plab tarixiy ma'lumotlar va qiyosiy kuzatishlar o'z ildizlarini Budagov, Radlov va boshqa XIX asr turkiyshunoslari yaratgan ilmiy an'analardan oladi. Shu jihatdan Budagov va Clauson lug'atlari turkiy tarixiy leksikografiyaning bir-birini ketma-ket to'ldirib borgan rivojlanish bosqichlari sifatida qaralishi lozim.

Demak, umumturkiy leksikani tadqiq etishda Budagovning qiyosiy-dialektologik modeli ham, Clausonning tarixiy-etimologik modeli ham birdek muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ularning integrallashgan holda qo'llanilishi turkiy tillarning qadimgi leksik fondini yanada chuqurroq va mukammalroq o'rganish imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasida L.Z. Budagovning «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий» va G. Clausonning «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» lug'atlarida umumturkiy leksikaning tavsiflanish tamoyillari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi hamda quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, har ikki lug'at turkiy leksikografiya tarixida fundamental manba sifatida e'tirof etilsa-da, ular turli ilmiy maqsadlar asosida yaratilgan. Budagov lug'ati turkiy tillar va lahjalarning qiyosiy tavsifiga qaratilgan bo'lsa, Clauson lug'ati qadimgi turkiy leksik fondning etimologik rekonstruksiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Ikkinchidan, umumturkiy leksikani tanlash mezonlarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Budagov turkiy tillarning maksimal darajadagi leksik qamrovini ta'minlashga intilgan bo'lsa, Clauson faqat qadimgi turkiy davrda attestatsiyalangan va asl turkiy deb hisoblangan birliklarni tanlash tamoyiliga amal qilgan.

Uchinchidan, lug'at maqolalarining tuzilishida ham metodologik tafovut mavjud. Budagov lug'atlarida lahjaviy variantlar, geografik tarqalish va amaliy qo'llanish

ma'lumotlari ustunlik qilsa, Clauson lug'atida etimologik izoh, tarixiy attestatsiya va semantik evolyutsiya markaziy o'rin egallaydi.

To'rtinchidan, *ata, ana, el, ulus, ordu, yaylaq, qışlaq, yulki, otağ* kabi umumturkiy birliklar misolida olib borilgan tahlillar Budagov va Clauson tomonidan bir xil leksik material turli ilmiy maqsadlar nuqtayi nazaridan tavsiflanganligini ko'rsatdi. Natijada har ikki lug'at umumturkiy leksikaning turli jihatlarini yorituvchi mustaqil ilmiy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, Budagov lug'ati XIX asr turkiy dialektologiyasi va qiyosiy leksikografiyasining eng yirik yutuqlaridan biri sifatida turkiy tillarning leksik tarkibi va hududiy tarqalishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, unda chig'atoy adabiy tili materiallarining keng aks etganligi tarixiy o'zbek leksikasini tadqiq etishda alohida ilmiy qiymatga ega.

Oltinchidan, Clauson lug'ati XX asr turkiy etimologiyasining eng mukammal namunalardan biri bo'lib, proto-turk leksik fondni rekonstruksiya qilish, qadimgi turkiy matnlarni talqin etish va umumturkiy birliklarning semantik taraqqiyotini aniqlashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Yettinchidan, tadqiqot Budagov lug'atining umumturkiy leksikani qamrab olish darajasi hamda Clauson lug'atining tarixiy-etimologik izoh imkoniyatlari o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda turkiy leksikaning shakllanish va taraqqiyot jarayonlarini yanada to'liqroq yoritish mumkinligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, Budagov va Clauson tomonidan yaratilgan leksikografik an'analar turkiy tarixiy leksikografiyaning ikki muhim ilmiy yo'nalishini ifodalaydi. Ularni kompleks ravishda o'rganish umumturkiy leksikaning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy turkiy tillardagi aksini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa kelgusida tarixiy-etimologik lug'atlar yaratish, proto-turk leksik fondni rekonstruksiya qilish va turkiy tillar qiyosiy leksikologiyasini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Будагов Л. З. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. Т. I. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1869. – 810 с.
2. Будагов Л. З. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. Т. II. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1871. – 418 с.
3. Clauson G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – 989 p.
4. Древнетюркский словарь / Под ред. В. М. Наделяева, Д. М. Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
5. Кононов А. Н. *История изучения тюркских языков в России. Дооктябрьский период*. – Ленинград: Наука, 1972. – 271 с.
6. Радлов В. В. *Опыт словаря тюркских наречий*. Т. I–IV. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1893–1911.
7. Рахматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик лугати*. Т. I–III. – Тошкент: Университет, 2000–2009.
8. Севортян Э. В. *Этимологический словарь тюркских языков*. Вып. 1–7. – Москва: Наука, 1974–2003.

9. Тенишев Э. Р. (отв. ред.). *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика.* – Москва: Наука, 2001. – 822 с.
10. Tekin T. *A Grammar of Orkhon Turkic.* – Bloomington: Indiana University, 1968. – 295 p.
11. Tekin T. *Orhon Türkçesi Grameri.* – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2003. – 324 s.
12. Tuxtasinova M. “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” asaridagi chig‘atoycha harbiy istilohlarning leksik-semantik tahlili //Konferensiya 2024. – 2024. – T. 1. – №. 01.
13. Tuxtasinova M. [LZ Budagov lug‘atida eski o‘zbek adabiy tili harbiy istilohlarining izohlanishi](https://goldenscripts.navoiy-uni.uz). Oltin bitiglar–Golden Scripts, 2022 - goldenscripts.navoiy-uni.uz. <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conference7/article/view/1056>
14. Tuxtasinova M. "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug‘atida holat nomlarining ifodalanishi. <https://zenodo.org/records/10721896>
15. Tuxtasinova M. [L.Z.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” asarining turkologiyadagi o‘rni](https://cyberleninka.ru/article/n/1-z-budagovning-sravnitelnyy-slovar-turetsko-tatarskih-narechiy-asarining-turkologiyadagi-o-rni) <https://cyberleninka.ru/article/n/1-z-budagovning-sravnitelnyy-slovar-turetsko-tatarskih-narechiy-asarining-turkologiyadagi-o-rni>
16. Erdal M. *Old Turkic Word Formation: A Functional Approach to the Lexicon.* Vol. I–II. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1991.
17. Erdal M. *A Grammar of Old Turkic.* – Leiden–Boston: Brill, 2004. – 575 p.
18. Gabain A. von. *Alttürkische Grammatik.* – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1974. – 313 s.
19. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati.* 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

